MARIFATCHI-USTOZLAR

Aralov Jahongir
Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Yangi O`zbekiston rivojlanish strategiyasida o`qituvchi-ustozlarning roli, ularning ahamiyati, yaratilajak imkoniyatlar, maqsadlar, vazifalar xususida muhokama olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O`zbekiston, o`qituvchi, qaror, imkoniyat, rivojlanish.

Xalqimiz hamisha ustozlarni e’zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo‘yib kelgan. “Ustoz ota kabi ulug‘” degan hikmatli naql ham bejiz aytilmagan. Zero, butun borlig‘ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosibdir.

Prezidentimizning mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini o‘ylab, o‘qituvchi va muallimlarning hayotimizdagi nufuzi va mavqeini oshirish maqsadida ularning maqomini qonun darajasida belgilash bo‘yicha ilgari surgan taklifini oqilona siyosat deb bilaman. Inchunun, yurtboshimizning “O‘qituvchilarning huquqlari davlat himoyasida bo‘lishini, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuv, boshqa ishlarga jalb qilish javobgarlikka sabab bo‘lishini qat’iy belgilash lozim”, degan chuqur ma’noli fikrlari barcha yurtdoshlarimizda katta qiziqish uyg‘otdi.

Ta’lim sohasining yana bir muhim vazifasi – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat’iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat. Shu sababli “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari konsepsiyasi”ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ob’ektiv zaruratga aylanmoqda, deb o‘ylayman – dedi davlat rahbari.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”, deya ta’kidlagani yodimizda. Murojaatda bu so‘zlarning yana takroran yangrashi bejiz emas. Haqiqatdan ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Har qanday davlat tomonidan olib boriladigan islohot ortida inson va xalq farovonligi hamda jamiyat hayotini taraqqiy ettirish maqsadi mujassamdir. Ammo, barcha islohotlardan eng muhimi inson resursi yoxud inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan islohotdir. Sababi, ayni inson resursini shakllantirish orqali kelajakda islohotlarga boshchilik qiladigan, islohotlarni amalga oshiradigan, ularning ijrosini samarali tarzda ta’minlay oladigan, jamiyat hayotning turli sohalarini rivojlantirishga hissa qo‘shishga qodir kadrlarning yetishib chiqishiga erishish mumkin.

Jahon tajribasiga e’tibor qaratsak, urushdan so‘ng iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda qolgan, qolaversa, qazilma boyliklarga deyarli ega bo‘lmagan Finlyandiya, Yaponiya hamda Janubiy Koreya singari davlatlar asosiy e’tibor va sarmoyani inson resursini shakllantirishga yo‘naltirdilar. Millat sifatida qad rostlash va dunyoning rivojlangan davlatiga aylanishiga faqatgina ta’lim sohasini isloh etish, buning uchun o‘qituvchilarning jamiyatda eng obro‘li qatlamga aylantirish orqaligina erishish mumkin degan to‘g‘ri xulosaga keldilar.

Natijada, hozirda ushbu davlatlar aholisining yarimi oliy ma’lumotga ega ekaniga guvoh bo‘lish mumkin. Bunday davlatlarda xalqning bilimi va zakovati bilan taraqqiyotga erishish imkoniyatini beradigan ixtirolar va kashfiyotlar qilinishga erishildi. Mamlakat iqtisodiyoti

rivojlandi. Ularning yalpi ichki mahsuloti tabiiy boyliklarga ega bo‘lgan ko‘pgina davlatlarning yalpi ichki mahsulotidan katta ekanida kuzatish mumkin.

O‘zbekiston kelajagi uchun ham eng muhim va qimmatli sarmoya kelajak avlodning ta’limiga yo‘naltirilgan sarmoyadir. O‘rni kelganda qayd etish joizki, kadr bir yoki ikki yilda shakllanib qolmasligi barchaga ma’lum. Bir insonning zamon talabiga javob beradigan kadr bo‘lib yetishishi uchun kamida yigirma yil kerak bo‘ladi. Bu maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab olgan davr bo‘lib, buning uchun ota-ona, ta’lim oluvchi va davlat tomonidan katta sarmoya kiritiladi.

Bunday siyosat, eng avvalo, ta’lim sohasini isloh etishdan boshlanadi. Joriy yilning 30-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ayni shu jihatlarga e’tibor qaratilib, O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini ta’lim islohotlarini olib borish orqali yaratish ma’lum qilindi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. https://xs.uz/uz
2. https://yuz.uz/
3. https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari
4. https://m.kun.uz/
5. www.gov.uz